



NAMANGAN VILOYATI MINGBULOQ TUMANI HOKIMINING QARORI

2024-yil 27-avgust

434-6-81-Q/24

Mingbuloq tumani hokimligi

Namangan viloyati hokimining 2024-yil 24-avgustda “O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarda sanoat salohiyatini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 15-avgustdagi PQ–295-son qarori ijrosi haqida”gi 399-6-0-Q/24-sonli qarori haqida

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Hududlarda sanoat salohiyatini yanada oshirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” 2024-yil 15-avgustdagi PQ–295-son hamda Namangan viloyati hokimining 2024-yil 24-avgustdagi 399-6-0-Q/24-sonli qarori ijrosini tumanda ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6 va 25-moddalariga asosan,

QAROR QILAMAN:

1. Namangan viloyati hokimining 2024-yil 24-avgustdagi 399-6-0-Q/24-sonli qarori rahbarlik va amalda ijrosini ta‘minlash uchun qabul qilinsin.

2. 1.O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-avgustdagi PQ–295-son qarori bilan:

Iqtisodiyot va moliya vazirligi, Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimliklarining tuman va shaharlarda sanoat korxonalarini bilan ishlash bo‘yicha “respublika viloyat tuman” tamoyili asosida vertikal tizimni samarali yo‘lga qo‘yish to‘g‘risidagi taklifi ma‘qullanganligi; shunday tartib o‘rnatilganki, unga muvofiq:

a) hududlarda sanoat korxonalarini bilan manzilli ishlash maqsadida quyidagilar tashkil etilishi:

tuman va shaharlarda hokimning birinchi o‘rinbosari boshchiligida soliq va statistika organlari, banklar va iqtisodiy infratuzilma korxonalarining rahbarlarini o‘z ichiga oluvchi hududiy shtablar;

iqtisodiyot va moliya vazirining o‘rinbosari (X.B.Mustafayev) rahbarligida hududiy shtablar faoliyatini muvofiqlashtiruvchi Respublika shtabi;

bunda Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar, Toshkent shahar hokimlarining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosarlari hamda tuman va shahar hokimlari hududiy shtablar faoliyatini samarali tashkil etishi, korxonalarining samaradorligini oshirish hamda ularning muammolarini tezkor hal etishga har tomonlama ko‘maklashish uchun shaxsan mas‘ul hisoblanishi;

b) Energetika vazirligi, Markaziy bank, Soliq va Bojxona qo‘mitalari, Statistika agentligi va boshqa respublika ijro etuvchi hokimiyat organlari tomonidan Respublika shtabi so‘roviga muvofiq, sanoat korxonalariga oid ma‘lumotlar hududiy shtablarga taqdim etilishi ta‘minlanishi;

v) hududiy shtablar tomonidan har hafta sanoat korxonalarini muammolarini hal etish bo‘yicha amalga oshirilayotgan ishlar holati yuzasidan ma‘lumotlar Respublika shtabiga, Respublika shtabi tomonidan esa har oy hududlar kesimidagi ma‘lumotlar va tizimli muammolarni hal etish bo‘yicha takliflar O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi va Vazirlar Mahkamasiga kiritilishi;

belgilanishicha, 2024-yil 1-sentabrdan boshlab:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Iqtisodiyot va moliya vazirligi, viloyatlar va Toshkent shahar iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmalari tarkibida 5 ta shtat birligidan iborat Sanoatni rivojlantirish yig‘ma bo‘limlari tashkil etilishi;

tumanlar (shaharlar) iqtisodiyot va moliya bo‘limlarida sanoatni rivojlantirish bo‘yicha bosh mutaxassis lavozimi joriy etilishi;

bunda yangi kiritilayotgan shtat birliklari 1 va 2-ilovalarga muvofiq vazirliklar va mahalliy davlat hokimiyati organlarining shtat birliklarini qisqartirish hisobidan ajratilishi;

Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi Raisi, viloyatlar, Toshkent shahar, tuman va shaharlar hokimlarining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosarlari bir vaqtning o‘zida:

Qoraqalpog‘iston Respublikasi iqtisodiyot va moliya vaziri, viloyatlar va Toshkent shahar iqtisodiyot va moliya bosh boshqarmalari boshlig‘i;

tumanlar (shaharlar) iqtisodiyot va moliya bo‘limlari boshlig‘i etib belgilanganligi ma’lumot uchun qabul qilinsin.

3. Tuman hokimining birinchi o‘rinbosari A.Abdusalomov, manfaatdor tashkilot va idoralar bilan birgalikda O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 15-avgustdagi PQ–295-son qarori talablari asosida ish tashkil etsin.

4. Mazkur qarorning bajaralishini nazorat qilish tuman hokimining moliya-iqtisodiyot va kambag‘allikni qisqartirish masalalari bo‘yicha birinchi o‘rinbosari A.Abdusalomov zimmasiga yuklansin.

Tuman hokimi



A.Mansurov